

**ONLAYN NIZOLARNI HAL QILISHDA SAMARADORLIKNI
OSHIRISH.**

BU YO‘LDA RAQAMLI SUDLARNING O‘RNI

Barotaliyev Quvonchbek Murodaliyevich

Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik
fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot jadal sur’atda rivojlanmoqda. Bu rivojlanish bizga turli imkoniyatlar bilan bir qatorda yangidan-yangi huquqiy muammolar ham olib kelishi mumkin. Muallif ushbu maqolada aynan shu muammolarni ko’rsatib o’tadi hamda ular uchun keltirilishi mumkin bo’lgan yechimlarni, bu sohada raqamli sudlarning o’rnini va erishilishi mumkin bo’lgan natijalarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlari: onlayn nizolar, raqamli iqtisodiyot, raqamli sudlar, elektron hujjatlar, kiberxavfsizlik.

Barchamiz bilganimizdek 21-asr “texnologiyalar” asri. Asrni bu kabi nom bilan atashga esa sabablar yetarlicha. Ayni damda kundalik hayotimizda ham turli xil elektron qurilmalar va onlayn saytlarning o’rni juda katta va sezilarli. Biror bir buyumni sotib olish, yoki sevimli taomingizni yeyish uchun endi ortiqcha vaqt va mehnat sarflash shart emas, shunchaki qo’lingizdagi qurilma orqali ularni onlayn buyurtma qilish kifoya. Xolbuki bu kabi gadjetlar faqatgina kundalik yordamchingiz bo’libgina qolmay, bundan ancha muhim va qiymatli hisoblangan shartnomalar, bitimlar va kelishuvlar tuzishda ham ishlatilinishi mumkin. Biroq bu holat yangicha jinoyatlarni va jinoyatchilarni paydo qilyabdi desak ham adashmagan bo’lamiz. Har xil kiberhujumlar, onlayn firibgarlik va hokazo. Lekin bizda bu jinoyatlarni tartibga solish uchun yetarlicha manbalar bormi?

Umumiy olib qaraganda O'zbekiston Respublikasida shu kabi huquqbuzarliklarning oldini olish uchun 2022-yilda "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonun qabul qilingan, hamda sud tizimi aynan shu va shunga o'xshash qonunlar orqali onlayn huquqbuzarliklarni tartibga solishadi. Masalan qonunning 22-moddasida kiberxavfsizlik hodisalarini tekshirish haqida ma'lumot beriladi va shunday deyiladi: "Kiberxavfsizlik hodisalari vakolatli davlat organi yoki kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ishchi organing mansabdor shaxslari tomonidan tekshiriladi.

Kiberxavfsizlik hodisasi sodir bo'lgan axborot resursining yoki axborot tizimining egasi, agar u tekshiruv o'tkazish uchun zarur bo'lgan resurslarga va texnik imkoniyatlarga ega bo'lsa, kiberxavfsizlik hodisasining tekshiruvini o'tkazishi mumkin. Bunda vakolatli davlat organi tekshiruv natijalari to'g'risida xabardor qilinishi kerak".

Biroq bu kabi qoida va normalar ish samaradorligini oshirishda va vaziyatni to'liqligicha anglab yetkazishda qiyinchiliklarga duch keladi. Shuningdek bu tizimda ham bir necha muammolar va kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Bularga misol qilib: ortiqcha vaqt sarflanishi, geografik to'siqlar va ortiqcha resurslar ishlatilishini misol qilib olsak bo'ladi.

Xuddi shu kabi muammolarni kamaytirish uchun raqamli sudlar amaliyotini O'zbekiston hududida qo'llash maqsadga muvofiq bo'lardi. Raqamli sudlar shaklda olib boriladi va bu imkoniyat fuqarolar va mansabdor shaxslarga birdek qulayliklar yaratadi. Bu qulayliklar quyidagilarni tashkil qiladi:

1. Vaqt tejiladi - fuqarolar murojaatlari avtomatik ravishda tez fursatda ko'rib chiqiladi va sanoqli soatlar, hatto daqiqalarda ularga yuridik yordam ko'rsatiladi.

2. Geografik va hudud bo'yicha muammolar bo'lmaydi – har kim o'z uyidan turib muammolariga yechim topsa bo'ladi va bu uchun hech qayerga boorish va kutish shart bo'lmaydi. Bundan tashqari sud qatnashchilari ham sud zaliga tashrif buyurish uchun uzoq masofani bosib o'tishmaydi va ortiqcha vaqt tejiladi.
3. Resurslar tartibga solinadi – barcha qonun hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar avtomatik ravishta davlat elektron bazasiga saqlanadi va ortiqcha tartibsizlik yuzaga kelmaydi.
4. Byurokratizmning oldi olinadi – qogozbozlik kamayadi, hamda fuqarolar murojaat qilishi yanada oson va soddalashadi.
5. Shaffoflik yuzaga keladi – elektron raqamli sudlarda „nepotizm“, ya'ni tanish-bilishchilik qilishga imkon qolmaydi, shuningdek korrupsiyaga yo'l qo'yilmaydi. Buning natijasida sud tizimi yanada shaffoflashadi.
6. Xarajatlar kamayadi – elektron raqamli sudlar nisbatan ancha arzon bo'ladi va aholining istalgan qismining ularga murojaat qilishga imkoniyati yetadi.
7. Vaqt va muhit farqlanmaydi – raqamli sudlar 24 soat davomida hech qanday tanaffus va dam olishlarsiz ishlaydi va istalgan vaqtda unga murojaat qilish imkoniyati bor.

Raqamli sudlar hozirda dunyoning ko'plab siyosiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarida qo'llanib kelinmoqda, masalan: Kanada, Estoniya, Singapur va boshqalar. Ayniqsa Kanada davlati raqamli sudlar tajribasini o'z siyosatida birinchilardan bo'lib ishlatishni boshlagan va hozirda bu sohada ijobiy natijalarga erishgan. Kanadada asosiy raqamli sudlar tizimi mavjud bo'lib, u ODR (Online Dispute Resolution) deb nomlanadi. 2016-yildan 2018-yilgacha aynan ODR

tizimidagi sudlar 14 000ga yaqin ishlarni ko‘rib chiqqan va 86% holatda ularni to‘g‘ri hal qilgan. Hozirga kelib Kanadada raqamli sudlar tizimi juda rivojlanib va ommalashib ketgan, buning natijasida 2023-2024- yillarda raqamli sudlar tomonida 768 615ta ish faol ko‘rib chiqilgan. Bu natija 2022-2023- yillarga nisbatan 0,3% o‘shish bo‘lganligini bildiradi. Shu kabi ijobiy natijalar tufayli raqamli sudlar amaliyoti tez sur‘atda dunyo bo‘ylab tarqalmoqda va ko‘pchilik davlatlar o‘z davlat tizimlarida bu amaliyotdan foydalanishni boshlab yuborgan.

Barcha boshqa tizimlar kabi raqamli sudlar tizimida ham “tanganing ikkinchi tomoni”, ya’ni bir qancha kamchiliklar borligini ham inkor etib bo‘lmaydi. Mamlakatimiz asosiy hududida internet tarmoqlari o‘rnatilgan, biroq ba’zi bir chekka qishloqlar va ovullarda bu kabi zamonaviy imkoniyatlar to‘liqligicha ta’minlanmagan, ya’ni internet tarmoqlari o‘rnatilmagan, o‘rnatilgan bo‘lsada ishlash sifati yaxshi emas va turli xil uzilishlar bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari „elektron hujjatlar”, „onlayn murojaatlar” kabi tushunchalar davlatimizga 2018-2019 yillarda kirib keldi va asta sekinlik bilan rivojlana bordi. Bu shuni anglatadiki, aholining aksariyat qismi hali bu vositalardan foydalanishni to‘liqligicha bilishmaydi va bu raqamli sudlarga murojaat qilishni ular uchun qiyin va muammoli jarayonga aylantirib qo‘yadi.

Ammo bu kabi muammolarni hal qilishning ham yo‘li bor. Bu uchun avvalambor mamlakatning butun hududi bo‘ylab samarali va davomli internet tarmog‘ini yo‘lga qo‘yish hamda uning ishlashini nazorat qilib turish kifoya. Bundan tashqari aholi uchun raqamli sudlardan foydalanish uchun ko‘nikma shakllantirish maqsadida turli qo‘llanmalar, videoroliklar tashkil qilish, shuningdek aynan raqamli sud sohasi bo‘yicha mutaxasislarni tayorlash va ularni o‘qitish yechim bo‘la oladi.

Bu amaliyot O'zbekiston Respublikasi siyosiy tizimiga ham asta sekinlik bilan kirib kelmoqda. Aynan shu tizim bo'yicha O'zbekiston Respublikasida 2023-yila tadqiqot o'tqazib ko'rildi. Tadqiqot natijalari sud tizimidagi islohotlar va raqamlashtirish jarayonlarining bir qancha ijobiy ta'sirlarini ko'rsatdi: Samaradorlikning oshishi: Raqamlashtirish orqali sud ishlarining ko'rsatkichlari 30% ga tezlashdi. Elektron hujjat aylanishi tizimi ish jarayonini soddalashtirdi va vaqtni tejadi. Fuqarolar ishtiroki: So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, fuqarolar orasida sudga onlayn murojaat qilish 40% ga oshgan. Bu, raqamli xizmatlarning qulayligi va mavjudligini aks ettiradi. Ishonchning kuchayishi: intervyularda sud xodimlari va fuqarolar raqamli transformatsiya jarayonlarini ijobiy baholadi, shuningdek, sud tizimiga bo'lgan ishonchning oshayotganini ta'kidladilar. Statistik o'zgarishlar: O'zbekiston Respublikasining Oliy sudining ma'lumotlariga ko'ra, raqamlashtirishdan so'ng sud jarayonlaridagi xatoliklar va kechikishlar 25% ga kamaydi. Bu natijalar, sud tizimidagi islohotlar va raqamlashtirishning muhimligini va ularning fuqarolar hayotiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasida sudlar tizimini tartibga solish asosiy masalaga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ilgari surilgan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish ikkinchi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangani bejiz emas. Zero, davlat va jamiyatni tubdan modernizatsiya qilishda, eng avvalo, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, sud mustaqilligini ta'minlash, odil sudlovga erishish, qonuniylilikni mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi samarali kurashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida berilgan ma'lumot va fikrlarga tayangan holda shuni xulosa qilish mumkinki, mamlakatimizda onlayn nizolar yanada avj olishi, ko'payishi va yiriklashib ketishining oldini olish maqsadida aynan raqamli sudlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ammo bu uchun davlat bir qancha muhim islohotlarni amalga oshirishi ya'ni bu amaliyotga to'liq tayyor bo'lishi lozim. Shundan so'ng ushbu keltirigan zamonaviy amaliyot davlatimiz sud tizimi uchun ijobiy o'zgarish sifatida xizmat qilishi va fuqarolarga katta yordam ko'rsatishi turgan gap.

REFERENCES:

1. Xushnazarova, F., & Kasimova, A. (2024). SUD TIZIMIDAGI YANGI ISLOHOTLAR, SUD-HUQUQ TIZIMINING RAQAMLASHTIRILISHI. Modern Science and Research, 3(12), 210–215. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/scienceresearch/article/view/49446>.
2. <https://inlibrary.uz/>.
3. Kiberxavfsizlik to'g'risidagi qonun.